

O'QUVCHILARNING XULQ-ATVORINI SHAKLLANTIRISHDA DINIY VA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Abdullayev Oybek Qurbonovich.

Qo'qon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi.

[e-mail:oybekabdulla2981@gmail.com](mailto:oybekabdulla2981@gmail.com)

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarida o'quvchilar ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga doir bilimlarni oshirishda diniy qadriyatlarning ta'siri, Islom madaniyatiga qadar jamiyat ruhiyatini shakllantirishga xissa qo'shgan omillar, islom madaniyati sharq mutafakkirlari qarashlari va milliy madaniyat orqali yoshlarni tarbiyalash yoritib berilgan.

Tayanch iboralar: xulq, atvor, axloq, qadriyat, an'ana, Avesto, mutafakkir, faylasuf, tarbiya.

Ruhiyatni tarbiyalash, xulq-atvorni shakllantirish masalasiga kishilik jamiyatining barcha davrlarida e'tibor bilan qarab kelingan. Negaki, kishilarning ruhiyati, xulq-atvori, yurish turishi, saviyasi, muomalasi jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi muhim omil bo'lib hisoblanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "xulq" so'zining tilimizga arabcha so'zdan kirib kelganligi va u fe'l-atvor, tabiat, kayfiyat kabi ma'nolarni anglatishi, shu bilan birga, xulq-kishining muomala va ruhiy xususiyatlari majmui, fe'li, xarakteri va unga odat bo'lib qolgan takrorlanib turadigan xatti-harakatlar, odatlar, qiliqlaridir[2;638-639-b]— deb e'tirof etiladi. "Atvor" tushunchasi ham tilimizga arab tilidan kirib kelgan va u yurish-turishlar ma'nosini anglatadi.

O'zbekiston milliy entsiklopediyasida xulq-atvor tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "xulq-atvor - axloqshunoslik tushunchalaridan biri. Insonning fe'l-atvori bilan bog'liq axloqiy hodisa bo'lib, kishi fe'lining axloqiylik namoyon bo'lishi tushuniladi. Insonning axloqiylik doirasidagi xatti-harakatlari xulqdan tashqari odob va axloqni o'z ichiga oladi"[3;179-b]. Demak, insonning axloqiylik doirasidagi xatti-harakatlarini tartibga solish, zamon talablari doirasida go'zallashtirish hamda ijtimoiy dunyoqarashni ham o'zgartirish muhim vazifa ekanligi kelib chiqadi. Bu orqali bolalarning xulq-atvorini shakllanishiga namuna bo'lish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, O'zbekiston milliy entsiklopediyasida xulqni xususiyatiga ko'ra axloq va odob o'rtasidagi hodisa ekanligi, odobdan kengligi, axloqdan esa tor ma'noga egaligi haqidagi ham fikr keltirilgan.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Demak, xulq axloq bilan birgalikda jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsata oladi. U oila, mahalla, ta'lim, mehnat jamoasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bois insonlarning xulq-atvoriga jamoa a'zolari, qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar, mahalla-kuy baho beradi. Bu baho har doim ham kishilarga: "xulqi yaxshi", "xulqi go'zal", "xulqi na'munali" yoki aksincha "xulqi yomon", "xulqi qoniqarsiz" kabi so'zlar bilan ifolanadi. Kishilarning shirinsuhanligi, muloyimligi, bezorligi, saxiyliги, mehribonligi, mehnatkashligi kabi xususiyatlari ularga yaxshi xulq egasi bahosini olib bersa, qo'polligi, jahldorligi, xasisligi, tanballigi ularning yomon xulqqa ega ekanligini anglatadi.

O'z navbatida bizning ajdodlarimiz ham yoshlar xulq-atvorini yoshlik davridan boshlab shakllantirishni o'zlarining asosiy maqsadlaridan biri sifatida qaraganlar. Buning isboti sifatida xalq pedagogikasi namunalari, yozma manbalar, mutafakkirlar asarlaridagi asosiy kontseptual g'oyalarni eslashning o'zi kifoya. Imom Buxoriy bobomiz o'z kitoblarida keltirilgan muborak hadisda aytilganidek, "Barcha amallar niyatga qarab bo'ladi"[4;49-b]. Zero, pok niyatlar bilan boshlangan xayrli ishlar albatta ijobat bo'ladi. Shunday ekan, bolalar tarbiyasida, ularning xulq-atvorini to'g'ri shakllantirishda pok niyat, qat'iy intizom va to'g'ri yo'naltiruvchi bilim, qadriyat va an'analardan samarali foydalanish talab etiladi.

Shu kunga qadar kishilar xulq-atvorini shakllantirishda diniy qadriyatlar ham yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Avesto va Islom madaniyati manbalarida aytilishicha, kishilarning xulqi uning ichki dunyosi go'zalligini belgilab beruvchi mezondir.

Islom madaniyatigacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyo xalqlarini ezgulikka da'vat etuvchi manba bu - "Avesto" hisoblangan. Uning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati ham shundaki, u yosh avlodni yaxshilik va ilm-ma'rifat sari yetaklagan: "Men zardushtiylik diniga sodiq bo'lishga va'da beraman. Men yaxshi fikrlar, yaxshi so'zlar, yahshi ishlarga ishonaman..."[5;10-b]. "Avesto"da insonlar doimo yaxshilikka intilib yashashi, o'ylaydigan fikri, aytadigan so'zi va bajaradigan amallari ezgu bo'lmog'i lozimligi ta'kidlanadi.

Axloqiy qoida va tamoyillar ustunligi bo'yicha islom madaniyati hamon dunyo madaniyatiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda. Islom dini asrlar mobaynida kishilarni halollik, poklik, axloq-odob, insof-diyonatga da'vat etib kelmoqda. Uning muqaddas kitobi Qur'on va hadislarda ezgulik, halollik, poklik, mehnatsevarlik, shirinsuxanlik,

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

barchaga birdek yaxshilik qilish, omonatga xiyonat qilmaslik, xaromdan hazar qilish, tozalik va ozodalik, ko'ngil pokligi kabilarga da'vat etiladi. Ayniqsa, islom ta'limotida go'zal xulq insondagi barcha fazilatlarning eng afzalidir, deb e'tirof etiladi. Chunki go'zal xulq egasi boshqalarga ozor bermaydi, aksincha barchaga doimo yaxshilik qiladi. Islom dinining eng muhim xususiyati shundaki, u kishilarni yomon xulq va yomon ishlardan o'zini tiyishga, boshqalarga tili bilan ozor bermaslikka undaydi. Qur'on va hadislarda yaxshilikni go'zal xulqli kishilardan kutingiz, go'zal xulqli kishi esa Anas(r.a) rivoyatida Payg'ambar Alayhissalom tomonidan quyidagicha ta'riflanadi: "Go'zal xulq – aloqani uzgan (qarindoshlaring)ga bog'lanmog'ing, sendan qizg'angan kishiga bermog'ing, senga zulm qilganni kechirmog'ingdir". Bazzol(r.a) rivoyatida esa Payg'ambar alayhissalom shunday deganlar: "Odamlarga mollaringiz bilan emas, ochiq chehra va go'zal xulq bilan yuzlaning". Shuningdek, islomga ko'ra, tarbiyada eng muhim narsalardan biri farzandni sog'lom aqida bilan o'stirishdir. Chunki sog'lom aqida bilan tarbiya olmagan farzandlarda hech qanday yaxshilik bo'lmaydi. Tarbiya beruvchi ota-ona va murabbiylar asosiy e'tiborini shu jihatga qaratishi lozim. Chunki Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam ham bu narsaga katta e'tibor berganlar[6]. Demak, talaba-yoshlar ruhiyatini to'g'ri yo'naltirishda, ularning irodasini mustahkamlashda, sabrini sayqallashda, shijoatini to'g'ri yo'naltirishda muqaddas dinimizning sof aqidalaridan ham foydalanish va iymonli yoshlarni tarbiyalashga jiddu jahd qilish zarur.

Aslida tarbiya donishmand ota bobolarimiz, oqila momolarimizdan qolgan buyuk meros, ularning hayotiy tajribasi, ayniqsa, ularning kelajak avlodni barkamol insonlar etib tarbiyalash haqidagi g'oyalari yig'indisidir.

Yosh avlodga munosib tarbiya berish, ular ruhiyatidagi illatlarni bartaraf etish masalasi kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida mutafakkirlar hamda faylasuf, psixolog va pedagog olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Buni, o'z navbatida Sharq allomalari tomonidan yaratilgan ijtimoiy-pedagogik va ilmiy-axloqiy asarlarda ham ko'rish mumkin. Ayniqsa, ushbu g'oyalar talqini Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Dovoniy, Alisher Navoiy, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalarning qarashlari, yondashuvlarida ko'rishimiz mumkin. Bu kabi allomalar va mutafakkirlar nomlarini juda ko'plab keltirishimiz mumkin. Yoki xalqimiz orasidan yetishib chiqqan oddiygina minglab, millionlab xalq vakillari o'zlarining yaxshi xulqi,

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

mukammal ma'naviy dunyosi, kamtarinligi, insoniyligi bilan kelgusi avlodlarga o'rnak bo'la oladilar. Demakki, bizning har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash haqidagi niyatimiz uchun ma'naviy asos yetarli deb o'ylaymiz. Millatimiz urf-odatlarini, qon-qoniga singib ketgan ma'rifat tushunchasi, ilm egallashga intilish hislati bugungi davr farzandlari uchun ham dasturul amaldir.

Jismoniy ta'limni rivojlantirish asosida o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini oshirish bilan birga ularning ruhiyatini ham barqarorlashtirish, ruhiyatiga ijobiy ta'sir etuvchi ta'lim metodikasini yaratish yuksak ma'naviy va axloqiy salohiyatga ega bo'lgan, yuqori malakali va jismonan yetuk, kuchli irodali o'quvchilarni tayyorlash masalalari doirasida xorijiy tajriba, rivojlangan davlatlar amaliyoti o'rganilmoqda. O'rganilgan tadqiq va tahlillarga ko'ra aqliy va jismoniy yetuk mutaxassislar tayyorlaydigan ta'lim muassasalarining o'quv – tarbiya jarayonini davr talablari asosida tashkil etish, ta'lim – tarbiya ishlarini samaradorligini oshirish uchun uning yo'nalishlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtirish talab etiladi. Zero, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot, oldimizga qo'yayotgan bir – biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimini aynan ta'lim – tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz»[7]. Darhaqiqat, ijtimoiy muammolarning barchasi ta'lim-tarbiya, jamiyatning ilmiy salohiyati va dunyoqarashining yuksak emasligi bilan o'lchanadi.

Yosh avlod ruhiyati, xulq-atvori, odob-axloqining yuksak darajada shakllanganligi jamiyat tarqaqiyotining asosiy omili deb bilgan Markaziy Osiyo mutafakkirlari o'zlarining qarashlari va yondashuvlarini nodir asarlari va qo'lyozmalarida bayon etib ketgan. Bu borada uyg'onish davrining yirik namoyondasi Al Forobiyning pedagogik g'oyalari diqqatga sazovordir. Uning fozil jamoa haqidagi fikr va qarashlarida insonlarning axloqiy yetukligi masalasi tilga olinadi. Forobiy axloqli inson o'n ikki fazilatga ega bo'lmog'i lozimligini tilga olib, bu hislatlar jamiyat tarqiyoti uchun muhimligini e'tirof etadi: "...o'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga, adolatsizlikka, jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, o'z odamlari va boshqalarga adolatli bo'lsin, go'zal va yaxshi hisoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda odamlarni adolatga targ'ib

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

etadigan, adolatsiz oqibatlarini yo‘qotadigan, ularga yo‘l qo‘ymaydigan bo‘lsin”[8;278-b].

Shu bilan birga Forobiy o‘z qarashlarida insonlardagi ruhiy go‘zallik, oliyjanoblikni ulug‘laydi va bunga o‘z kuchi, harakati bilan erishmog‘i lozimligini aytib o‘tadi: “Agar inson xayrixohlik, go‘zallik, oliyjanoblik va ulug‘vorlikka boshqa odamlar orqali emas, balki o‘z kuchi va o‘z ruhi o‘rtasidagi mavjud narsa orqali erishgan bo‘lsa, ul (odam) haqiqatan ham xayrixohlik va barkamolikka erishadi”[8;278-b]. Zero, Forobiy ta’kidlaganidek, ruhiy go‘zallik bu xulqning go‘zalligi va oliyjanoblikdir.

Yaxshi xulq, kamtarlik inson fazilatlarining ko‘rki deb bilgan Kaykovus ham o‘z o‘g‘liga nasihatlarida unga barcha insoniy fazilatlar egasi bo‘lish sir-asrorlarini o‘rgatib o‘tadi. Chunonchi u yaxshi so‘zning qudrati haqida gapirar ekan, farzandiga shunday deydi: “Nedinkim, tilga har nechuk so‘zni o‘rgatsang, shuni aytur, so‘zni o‘z joyida ishlatg‘il, so‘z agar yaxshi bo‘lsa, ammo noo‘rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon, nobop eshitilur. Shuning uchun behuda so‘zlamag‘ilki, foydasizdur. Bunday befoyda so‘z ziyon keltirur”[9;38-b]. U har bir so‘zni boshlashdan oldin andisha bilan boshlashni, andisha kamtarlik belgisi ekanligini, sovuq so‘zdan dushmanlik hosil bo‘lishini ta’kidlaydi.

Kaykovus muloyim so‘zlilik yaxshilikning kalitidir deb biladi: “Muloyim so‘zga baxil bo‘lmag‘il, xalq muloyim so‘z eshitmasa, mol va dunyoga mag‘rur bo‘lur. Qattiq so‘z demag‘il, toki yaxshi so‘z eshitg‘aysan. Sho‘ristong‘a tuxum sochmag‘ilkim hosil bermag‘ay, mehnating behuda bo‘lg‘ay, ya’ni yaxshilikni bilmag‘on kishiga yaxshilik qilmoq sho‘riston yerga tuxum sochmoqdur. Ammo yaxshilikka loyiq kishidan yaxshilikni darig‘ tutmag‘il va unga ham yaxshilikni o‘rgatg‘il”[10;39-b]. Kaykovus inson qilgan yaxshiligidan hech qachon pushaymon bo‘lmasligini, balki yaxshilikning o‘z mukofoti borligini hamda u inson ko‘ngliga xursandchilik olib kelishini aytib o‘tadi.

Yosh avlod xulq-atvorini shakllantirish masalasi uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘liga ega ekan, bu borada Alisher Navoiyning pedagogik qarashlarini chetlab o‘tish aslo mumkin emas. Shoir o‘z asarlarida xalqimizning eng oliyjanob fazilatlarini va sifatlarini ulug‘ladi va yosh avlodni ana shu fazilatlar egasi bo‘lishga chorladi. Uning qay bir asariga nazar tashlamaylik, kishilarning ma’naviy dunyosini belgilovchi fazilatlarini: odob-axloqi, go‘zal xulqi alohida tilga olinadi. Masalan, “Xamsa”dagi Farhod va

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Shirin obrazlarida go'zal fazilatlar egalari tinglovchiga ko'rsatib beriladi. Farhod va Shirinning xushxulq egasi ekanligi, bir-birlari bilan bo'lgan go'zal muomalasi aks ettiriladi. Shu bilan birga, Navoiy o'z asarlarida, ayniqsa, "Mahbub-ul-qulub" asarida axloq, turli guruh kishilarining odobi masalasini maqolalar shaklida yoritib berdi va insondagi oliyjanoblik, ota-ona, ustozlarga hurmat qadriyatlarini ulug'ladi va boshqalarni ham ushbu qadriyatlarga amal qilishni asarlari orqali targ'ib qildi. U hikmatlarida insonlardagi salbiy illatlarni qattiq qoralaydi va tinglovchilarni ulardan ogoh bo'lish lozimligini ta'kidlab o'tadi.

Shoir ushbu hikmatida uch toifa kishilardan uch ish yomon ko'rinishi, ya'ni shohdan g'azab, boy-badavlat kimsadan hasislik va donodan molga hirs qo'ymoqlikni aytib o'tadi. Zero, kishilardagi mana shu illatlar salbiy xulq-atvorning ko'rinishlaridir. O'z zamonasida yosh avlod xulq-atvorini shakllantirishning milliy asoslarini yaratgan pedagog olim Abdulla Avloniy o'z qarashlarida xulqni ikkiga: "Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lmishlar: agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikg'a tavsif bo'lub "yaxshi xulq", agar tarbiyatsiz o'sub, yomon ishlaydurg'an bo'lub ketsa, yomonlikg'a tavsif bo'lub, "yomon xulq" deb atalur"- ajratadi[11;42-b] . Avloniy insonlardagi yaxshi xulqqa: diyonat, g'ayrat, qanoat, shijoat, sabr, intizom, vijdon, iffat, hayo, sadoqat, munislik, muhabbat kabilarni kiritadi va mana shu xulqqa ega bo'lish uchun axloqi yaxshi kishilar bilan hamsuhbat bo'lish, aksincha yomon xulqli kishilardan qochish kerakligini uqtiradi. Avloniy bola xulqini shakllantirishda tarbiyaning rolini yuqori baholaydi, uning ta'kidlashicha: "Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur..."[12;460-b]. Demak, alloma inson fazilatlarining eng go'zali axloqdir deb biladi va axloqni insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir- deb hisoblaydi.

Yuqoridagi tahlillarga ko'ra shuni ta'kidlash joizki, kishilik jamiyati tarixida yosh avlod xulq-atvorini shakllantirish masalasi o'zining muayyan tarixiy yo'liga ega va bu muammo har doim ta'lim-tarbiya jarayonining yetakchi vazifalaridan hisoblangan. O'z navbatida bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri ham bolalar xulq-atvorini salbiy o'zgarishdan asrash va uni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent.: O'zbekiston, 2020 yil 23 sentyabr. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.638-639
3. Гофуров, Абдувохид Махмудович, and Абдушокир Махмудович Гофуров. "ФИЗКУЛЬТУРНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ НА ПУТИ К УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". Vol. 3. No. 1. 2024.
4. Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA'VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.
5. Makhmudovich, Gofurov Abduvokhid, and Gofurov Abdushokir Makhmudovich. "STUDY OF FUNCTIONAL INDICATORS OF YOUNG SWIMMERS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.10 (2023): 29-31.
6. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir. "Medical problems of sports selection and sports orientation." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 313-318.
7. Abduvalievich, Abdullaev Rustamjon. "NECESSARY FORMATION OF COMPLEX COMPETENCE SAFETY OF TOURIST SERVICES DURING THE DEVELOPMENT OF A STRUCTURAL-FUNCTIONAL MODEL." Science and Innovation 2.2 (2023): 261-264.
8. Abdullabdullaev, R. "BASES OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SUPPORT OF THE PROCESS OF FORMATION OF SPECIAL TOURIST KNOWLEDGE, ABILITIES AND SKILLS." Science and innovation 2.B3 (2023): 122-123.